
Tashabbusli byudjet: 32-umumiy o'rta ta'lim maktabidagi 425 million so'mlik ishlar bajarildi

Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!

👉 O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida aholini byudjet mablag'larini taqsimlash jarayoniga jalb etish hamda aholi va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida konstruktiv muloqot o'rnatish va ochiq maydonchalarni tashkil etish orqali ularning fuqarolik jamiyati hayotidagi ishtirokini faollashtirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bu fuqarolar manfaati va jamoatchilik nazoratining ta'sirchan mexanizmlari asosida byudjet mablag'laridan samarali foydalanish vositasidir.

👉 Aholi Openbudget.uz platformasi orqali mahallasi, aholi punkti va tumanidagi u yoki bu ijtimoiy muammoni hal etish bo'yicha o'z takliflarini faol bildirmoqda. Eng ko'p ovoz olgan tashabbuslar moliyalashtirilib, aholi muammolarining manzilli yechim topishiga xizmat qilmoqda. Muhimi aholi byudjet taqsimotida ishtirok etib, o'zi yashayotgan hududdagi muammoni hal etish imkoniyati yaratildi.

👉 "Ochiq byudjet" axborot portali orqali fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflar asosida 2022 yil aprely oyida Rishton tumani bo'yicha jami 5 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari tomonidan taqdim etilgan loyihalar g'olib deb topilgan edi.

👉 Xususan, Tashabbusli byudjet (open byudjet) dasturi bo'yicha 32- umumiy o'rta ta'lim maktabida ham ishlar bajarildi. Xususan, 373 mln so'm mablag' evaziga devor va issiqlik tizimi yangilandi hamda 52 mln. so'm mablag' evaziga fasad qismini ta'mirlandi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-08-30 05:58:22